

O'ZBEKISTONDA GAZETA VA JURNALLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Guliston davlat universiteti
Psixologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix yo'nalishi talabasi
Durdimurodova Dilnoza Umidjonovna

Annotatsiya: Bugungi kunda ommaviy axborot va targ'ibotning asosiy vositalari gazeta va jurnallar desak mubolag'a bõlmaydi. Afsuski gazeta-jurnallarga aholi talabi, qanchalik tez va ko'p sotilishi o'rganilganda, xaridorlar soni yil emas, oy sayin kamayayotgani, jiddiy nashrlardan ko'ra, ko'ngilochar, teledasturlar jamlanmasi, turfa boshqotirma, krossvordlar to'plangan gazetalar sotilayotgani ma'lum bo'ldi.

Kalit so'zlar: Gazeta, nashriyot, jurnal, madaniy-ma'rafiy, «Turkestanskiye vedomosti», «Turkiston viloyatining gazetasi», krossword, «O'zbekiston ovozi», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Hurriyat», «Ishonch».

Gazeta ilk bor Rimda miloddan avvalgi I asrda (varaqa va byulleten shaklida), Xitoyda VII asrda («Di bao» – «Poytaxt axboroti» nomi bilan) chiqqan. Gazetalarning siz va biz mutolaa qiladigan hozirgi ko'rinishdagi turlari esa XVI-XVII asrlarda Yevropada paydo bo'lgan. Ularni shaxslar, aksariyat matbaachilar, noshirlar, pochta xodimlari nashr qilgan.

Ilk gazetalar haftada va 15 kunda bir marta chop etilib, kam nusxada bo'lgan. Ularda asosan saroy yangiliklari, tijorat xabarlarini bosilgan. XVI asrda Venetsiyada yozma axborotlar uchun «gazetta» degan chaqa pul to'lashgan. 1631-yilda Parijda qirol Lyudovik XIII (1586- 1653)ning shaxsiy shifokori va yilnomachisi Teofrast Renodo parijlik kitobfurushlar Lui Vandom va Jan Marpen bilan birgalikda «La Gazette» nomli vaqtli bosma nashrni tashkil etadi. «Gazeta» termini shu nashr tashkil qilingach ommalashgan. Gazetachilik XVIII asrdan e'tiboran, ayniqsa, Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya, AQShda taraqqiy qila boshladi va bu mamlakatlarda ko'plab ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi kundalik gazetalar paydo

bo'ldi. Gazeta jamiyatda bòlayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy hayotga oid dolzarb axborotni hozirjavoblik bilan turli adabiy janrlarda ommaga yetkazadi va shu yo'l bilan o'z gazetxonlarida kundalik turmush voqealariga nisbatan ma'lum munosabat va tasavvur paydo bo'lishiga, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy g'oya va e'tiqodlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrining natijasi hamda ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Jurnal gazeta kabi jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish yo'li bilan uni shakl-lantirishga xizmat qiladi; omma ijtimoiy ongiga muayyan g'oya va qadriyatlarni singdiradi. O'zbekistonda gazeta tarixi. Bugungi kundagi gazetalar dastlab Toshkentda Markaziy Osiyoda ilk gazetalar – «Turkestanskiye vedomosti» («Turkiston vedomostlari») va «Turkiston viloyatining gazetisi» 1870 yildan chiqib boshlagan. Turkiston general-gubernatorligi tomonidan tashkil etilgan mazkur nashrlardan ko'zlangan asosiy maqsad mustamlakachilarning yerli xalqlarga o'zlarining siyosatlarini targ'ib va tashviq etish edi. Mazkur gazeta harbiy okrug shtabi huzuridagi bosmaxonada nashr etilgan. tonda davriy matbuotning ibtidosi bo'ldi. Unda o'lka tarixi, madaniyati, geografiyasi, etnografiyasi, sanoati va boshqalarga oid maqolalar bosilgan. Shu bilan bir vaqtda o'zbek tilida «Turkiston viloyatining gazetisi» ham nashr etila boshladi.

1917-yilgacha Turkistonda bu ikki gazetadan tashqari turli vaqtlarda o'zbekcha va ruscha (ba'zan qirg'iz va tojik tillarida) 100 dan ortiq gazeta chiqqan. Ular asosan savdo, sanoat markazlari – Toshkent, Samarqand, Ashxobod, Qo'qon, Andijon, Farg'ona va boshqa shaharlarda nashr etilgan. XX asr boshida taraqqiyparvar o'zbek ma'rifatchilari nashr qilgan «Taraqqiy», «Xurshid», «Shuhrat», «Buxoroyi Sharif», «Samarqand», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «Najot», «Farg'ona nidosi», «Turk eli», «Hurriyat», «El bayrog'i» kabi gazetalar milliy gazetachilik tarixida munosib o'rin egallaydi. Ularda milliy taraqqiyot muammolari o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, «Taraqqiy» birinchi bor erkinlik, tenglik g'oyalarini ilgari surdi, jaddilarning qarashlariga moslashib, istiqlolning ma'naviy zamini masalasiga katta e'tibor berdi. Shuning uchun ham «Taraqqiy» gazetasining 1-soni chiqqan 27-iyun (1906) sanasi yurtimizda – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida belgilangan (1993).Ularning har ikkisi ham 1917 yilgacha chop ettirilgani sababli Turkiston matbuoti tarixida uzoq muddat davomida uzluksiz faoliyat ko'rsatgan davriy nashrlar sanaladi. Takidlab o'tish kerak 1906 yilga qadar butun o'lkada yagona «Turkiston viloyatining gazetisi»dan bo'lak mahalliy tilda bironta

gazeta nashr qilinmagan. Toshkentda o‘zbek tilidagi dastlabki mustaqil davriy nashrlarning paydo bo‘lishi 1905–1907 yillarda yuzaga kelgan 1-rus inqilobi davriga to‘g‘ri keladi. Bu, shubhasiz, o‘lka ijtimoiy hayotida tarixiy ahamiyatga ega muhim voqyea edi. Inqilobiy harakatlardan sarosimaga tushgan chorizm turli islohotlar soyasida matbuot sohasida ham yon berishga, so‘z erkinligini qisman bo‘lsa-da ta‘minlashga majbur bo‘ldi. Mamlakatning ziyolilari bundan foydalanib, davriy nashrlar chiqarish to‘g‘risida chor ma‘muriyatidan ruxsatnomalar olishga erishdilar. Natijada Toshkentda dastlabki ijtimoiy-siyosiy va adabiy mazmundagi o‘zbekcha davriy nashrlar tashkil topdi. Mustaqillik tufayli davriy matbuotning ahamiyati har jihatdan yuksaldi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlar natijasida yangi-yangi nashrlar ta‘sis etildi. Jumladan, Toshkentda «XXI asr», «Huquq», «Hurriyat», «Mohiyat», «Jamiyat», «Uzbekistan Today» singari gazetalar nashr etib kelinyapdi. Aksariyat gazetalar siyosiy partiyalar, vazirlik, tashkilot va yirik kompaniyalar tomonidan ta‘sis etilgan bo‘lib, mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘rifiy manfaatlariga xizmat qilmoqda. Bularidan tashqari, mustaqillik yillarida ko‘ngilochar nashrlar soni ham ko‘paydi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi matbuot xizmati habar berishiga ko‘ra bugungi kunda eng kòp, “Xalq so‘zi” (“Narodnoye slovo”)dan tashqari “O‘zbekiston ovozi”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Hurriyat” va “Ishonch” gazetalariga buyurtmalar soni oshganligi kuzatilgan. Demak yuqorida nomlari sanab o‘tilgan gazetalar eng kòp o‘qiladigan gazetalar ekan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach gazetalaridagi mafkuraviy yakkahokimlik tugadi. Gazetalar o‘z siyosiy yo‘nalishini, mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirdi. Ayrimlarining nomi ham o‘zgardi.

2022-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikamizda faoliyat yuritgan gazetalar soni 592 tani tashkil etgan. Afsuski, ular soni muntazam kamayib bormoqda. 2018-2019-yillar o‘zbek matbuoti uchun og‘ir bo‘lgan – bu davrda 129 ta nashr o‘z faoliyatini to‘xtatgan, 2019- 2020 yillar yakunlarida esa yana 94 ta gazeta yopilgani ma‘lum qilingan. Gazetalar har qanday davrda ham ma‘lumot olish uchun ishonchli manba bo‘lib qolaveradi. Zamon talabiga moslashgan, tezkor, qoliplardan chiqa olgan gazetalar doim o‘z mushtariylariga ega bo‘ladi.

Xulosa: Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, gazeta va jurnallarni o‘qish juda yaxshi odat ekan, chunki bu bilimlarni va tushunish darajasini oshiradi, shuningdek,



dolzarb mavzular, sport, san'at yoki boshqa narsalar bilan bog'liq har qanday baxsda qatnashganda sizga yordam beradi. Mustaqil jurnalistlar va huquq himoyachilariga ko'ra, so'z erkinligi keskin ta'qib qolmoqda. O'zbekistonda matbuot soni oshgani bilan, sifati a'lo darajada emas. So'nggi yillarda bir necha sifatsiz va faol bòlmagan gazetalar faoliyati to'xtatilganligi ham bunga yaqqol dalildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.-Toshkent:Ma'naviyat, 2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev. "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent, "O'zbekiston"- 2017.
3. Shavkat Mirziyoyev Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik - milliy g'oyamizning poydevoridir "Tasvir " nashriyot uyi Toshkent 2021. >
- 4.O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
:<https://www.academy.uz/uz/page/ilmiy-jurnallar>



Research Science and Innovation House